O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ETNOREALIYALARINING TARJIMADA BERILISHI VA BADIIY XOSLIGI

Muhammad Humayun Nadim
Termiz state university (PhD) katta o'qituvchisi
hn786786@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada etnorealiyalar o'zbek va ingliz xalqlarining to'y marosimlar badiiy matnlarida aks ettirilganligi, realiyalarning tavsifi, realiyalarning madaniy xususiyatlarni o'rni yoritilgan. Realiyalarning atamalardan farqi ochib berilgan. Lug'at boyligini oshirishi, milliy belgilarni aks ettirishi misollar orqali ko'rsatib berilgan. Maqolaning etnorealiya bilan bog'liq nazariy jihatlar (atamalar, ta'riflar) keltirilgan. Tarjima usullarining turli tasniflari ko'rib chiqiladi, maqsad tarjimaning turli jihatlarini o'rganish asosida (alohida e'tibor to'y marosim etnorealiyalarga qaratilgan) asosida aniq bir ish bo'yicha taklifga erishishdir. Ularni tekshirish va realiya tarjimasini batafsil tahlil qilish maqolaning asosiy qismini tashkil qiladi.

Kalit so'z: etnorealiya, globallashuv, badiiy matn, madaniyatlararo, *haqiqat*, atama, ekvivalentsiz.

TRANSLATION AND ARTISTIC CHARACTERISTICS OF ETHNOREALIES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Abstract: In the article, ethnorealisms are reflected in the artistic texts of wedding ceremonies of Uzbek and English peoples, the description of realisms, the place of cultural characteristics of realisms is highlighted. The difference between realities and terms is revealed. It is shown through examples that it can increase vocabulary and reflect national symbols. Theoretical aspects (terms, definitions) related to ethnoreality of the article are presented. Different classifications of translation methods are considered; the goal is to arrive at a proposal for a specific case based on the study of different aspects of translation (with a special focus on wedding ritual ethno-realities). Their examination and detailed analysis of the translation of reality is the main part of the article.

Key words: ethnoreality, globalization, literary text, intercultural, reality, term, non-equivalent.

KIRISH

Dunyo tilshunosligida til va madaniyat munosabati masalalari dastlab lingvistik antropologiya va tarixiy antrpologiya bo'yicha tadqiqotlar ko'rinishida o'rganilgan.

Bugungi kunda etnorealiyalarni o'rganish doirasi kengayib bormoqda. O'zbek tilshunosligida etnorealiyalarni ma'lum bir hududda yashab kelayotgan xalqning qadimiy urf-odatlari, madaniyati, an'ana va udumlarini o'zida ifodalaydigan milliy va dialektal leksik qatlam sifatida lingvomadaniy va lingvokognitiv jihatdan tekshirish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan.

Realiya (lotincha) "real" – "moddiy", "haqiqiy narsalar" degan ma'noni bildirib, mavhum tushunchalardan farqli ravishda borliqda mavjud narsalarni anglatadi. Realiyalarni boshqa yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ham ularning aynan predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligidir. Realiyalarni chuqurroq tadqiq etish va ularning milliy va tarixiy koloritni aks ettirish xususiyatlarini o'rganish harakatlari XX asrning 50-yillaridan boshlangan. Bu tilshunoslar orasida o'zaro bahs-munozaralarni keltirib chiqargan. Mazkur masalaning haqiqiy mohiyati diqqat markaziga olinmaganligi sababli asosiy to'xtamga kelisholmagan. Mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida realiyalarga baho berish bo'yicha ikki xil qarash borligini ko'rish mumkin:

1) Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan yondashuv;

2) Mamlakatshunoslik nuqayi nazaridan yondashuv.

Jumladan, M. L. Vaysburd realiyalarga mamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan to'xtalib, shunday ta'rif beradi: "Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxona yoki tashkilotlarning nomlari, kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko'plab narsalar nomlaridan iborat".[32] [1,98-100] Realiya tushunchasini dastlab madaniyatga xos obyektlar va hodisalar sifatida rus tarjimashunosligiga 1941-yili Andrey Fedorov kiritdi va ularni "realiya so'zlar" deb atashni taklif qildi. A.V.Fedorov "realiya" deganda "ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi", faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo'q bo'lgan so'zlar"ni tushunadi.[33] [2,160] Realiyalar o'zga tildagi matnlarni tushunish uchun zarur bo'lgan milliy-madaniy birliklar hisoblanadi. Boshqa mamlakatlar tarixi va muhim tarixiy voqealari, madaniyati, xalq og'zaki ijodi, siyosiy hayoti haqida yetarlicha bilimga ega bo'lmaslik til bilimlari borasida kompetensiyani yo'qotishga olib keladi. A.D. Shveytser fikriga ko'ra, realiyalarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular boshqa til va madaniyat tashuvchilari bilim fondidan tashqaridagi, ya'ni ular uchun begona bo'lgan tushunchalar hisoblanadi.[34] [3,153] G'arb tarjima maktabi olimlaridan biri Pedersen realiyani umumiy foydalanishdagi asosiy ma'nosi tufayli juda noaniq va chalkash deya tanqid qiladi. Uning fikrlariga qaraganda, realiyaning asl nomlanishi ("real narsalar") ham haqiqatga ziddir. Realiya so'zlar mavhum tushunchalarni ham

[32] Вайсбурд М. Л. Реалии как элемент страноведения // Русский язык за рубежом.1972.№3.С. 98–100.
[33] .Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. М.: Высш. шк., 1983.
[34] Швейцер А.Д. Теория перевода, статус, проблемы, аспекты. М.: Наука, 1988. 1973.

anglatishi mumkin. Ushbu paradoksni hal etish uchun Laponen (2009) xayoliy dunyoning o'ylab topilgan buyumlari uchun "irrealiya" (irrealia) atamasini taklif qilgan. Realiyalar borasidagi yaxlit fikrlar bolgar olimlari S.I.Vlaxov va S.P.Florinlarning "Непереводимое в переводе" asarida batafsil yoritilgan. Unga ko'ra: "Realiyalar –muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlari, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari bo'lib, ular milliy va davriy xususiyatga egadirlar" [35][4,8] Realiyalarning muhim xususiyati ular ifodalaydligan predmetning mohiyatidan kelib chiqadi. Muayyan xalqning turli tarixiy davrlardagi hayot tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti realiyalarning mohiyatiga, albatta, o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ana shuning uchun ham realiyalar to'g'risida gapirganda, albatta, milliy o'ziga xoslik va tarixiy kolorit masalasini chetlab o'tib bo'lmaydi. Chunki realiyalar har qanday holatlarda ham bir vaqtning o'zida milliy va tarixiy bo'yoqqa ega bo'ladilar. Bu esa ularga alohida munosabatda bo'lishlikni talab qiladi.

Bu farq Edvard Sapirning nazariyasida tasvirlangan: "Turli jamiyatlar yashaydigan dunyolar turli xil yorliqlar yopishtirilgan bir xil dunyo emas, balki alohida olamlardir". [36](Sapir, 1929) Shunday qilib, bir madaniyatdan boshqasiga o'tish ma'lum "madaniy zarbalar"ga olib kelishi mumkin (Leppihalme, 1997). [37] Tarjimashunoslikda madaniyatning keskin o'zgarishi sababi realiya yoki madaniyatga xos narsalardir.

Etnorealiya so'zi etnografizm bilan yaqin turdi, lotinchadan olingan bo'lib "Realiya" so'zining etimologiyasi ham lotincha "moddiy, haqiqiy" degan ma'noni anglatadi. Etnorealiya ko'proq sig'imli bo'lgani uchun bir "xalqlarning turmush tarzi va madaniyatini o'rganish"da faniga haqiqatan ham tegishli bo'lgan tushunchalar ma'nosini bildiruvchi *lingvistik birlik hisoblanadi*.

Realiya so'ziga lingvistik atamalar lug'atida unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurulishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so'zlar, muayyan tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik (15. 381) deyiladi[38].

Etnorealiyalar etnografizimlar bilan chambarchas bog'liq. Moddiy madaniyatning urf-odatlari, din shakllari, "ma'naviy madaniyat", shu jumladan san'at, folklor va boshqalarni o'rgandi. Bir madaniyat yoki bir xalqgagina xos bo'lib boshqa madaniyat va xalqga begona so'zlarni realiya deb atashadi. etnorealiyalarda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

[35] Vlakhov, Sergei and Florin, Sider (1980) Neperevodimoe v perevode, Moscow: Mezhdunarodnye otnosheniia.
[36] Sapir, E. (1929). The status of linguistics as a science. Language, 5(4), 207-214.
[37] Leppihalme, R. (1997). Culture Bumps. An empirical approach to the translation of allusions. Clevedon-Philadelphia-Toronto-Sidney-Johannesburg: Multilingual Matters.
[38] Fayzullayeva Z. Национальный колорит и художественный перевод. – Ташкент: Fan, 1980.

etnorealiyalarda til va madaniyat o’rtasidagi bog’liqlik yanada yaqqol ko’zga tashlanadi: jamiyatning moddiy va ma’naviy xayotida yangi etnorealiyalarning paydo bo’lishi tilda o‘shanga mos so‘zlarni paydo bo’lishiga olib keladi. Etnorealiya tarjimashunoslik, qiyosiy-tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnolingvistikaga oid tadqiqotlarda tillararo va madaniyatlararo farqlarni o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Etnorealiya madaniy munosabatlar darajasini yoritishga xizmat qiladi, xalqning turmush tarziga oid tushunchalarni aks ettiradi.

O‘zbek xonadonlarida qo‘shnilar o‘rtadagi devorning biror yeridan teshik ochib qo‘yishadi. Bu teshik orqali bir-birlaridan hol-ahvol so‘rashadi, tansiq ovqat qilganlarida biron idishda shu ovqatdan uzatishadi. Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan maqoli ana shu odatning ta’siri tufayli yuzaga kelgan. Ba’zan muayyan bir tilning etnorealiyalari ana shu tilning maqollarida ham o‘z aksini topib majoziy ma’no kasb etadi. Masalan, Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar maqolida o‘zbek milliy kiyim-kechaklarining belgisi bolgan do‘ppi realiyasi ishtirok etgan. Mazkur maqol: “Kishi uchun eng zarur narsa eng katta boylik – tanilog’lik. Sog’lik bo‘lsa, boshqa hamma narsani toppish mumkin ammo hech bir narsa bilan sog’likni topib bo‘lmaydi” degan ma’noni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

METODLAR

Maqolani tayyorlashda, tarjima matnlari haqidagi tadqiqot yo‘nalishlaridan, tavsifiy, qiyosiy tahlil usullari, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Olimlar madaniyatga xos narsalarni tarjima qilish uchun turli xil tarjima strategiyalari va usullarini taklif qilarkan, ulardan etnorealiyani tarjima qilishga yordam beradigan ba’zi bir strategiyalarni keltirib o‘tamiz.

Birinchisi, maqsadli matn ekzotik va tushunarsiz ko‘rinishiga qaramay, manba matnning xususiyatlarini saqlab qolishdir. Ikkinchisi, maqsadli matnni iloji boricha tushunarli qilish uchun moslashtirishdir. Ushbu ikkita strategiya bitta tayoqning ikkita uchi hisoblanadi va ular adekvatlik (asl nusxaga yaqinlik) va maqbullik (so‘zning maqsadli madaniyatga to‘liq mos kelishi) kabi turli nomlar bilan tanilgan (Toury,1980, p.100)[39]. Ulari fonetik transkripsiyadan umumiy ma’noni tarjima qilishi Isroillik olim Gideon Turining tavsifiga ko‘ra, ularning har birini ikki holat o‘rtasida joylashtirish mumkin: adekvatlik va maqbullik.

Etnorealiyani tarjima qilish uchun aynan shu olimning qarashlariga ko‘ra bu yerda turli xil imkoniyatlar mavjudligini misollar bilan keltiramiz:

— So‘zma so’z transkripsiya qilish, Bu asl nusxada transliteratsiya deb ataladi So‘z boshqa alifboda yoziladi;

— Belgilangan tilga ko‘ra transkripsiya qilish talaffuz qoidalari. Masalan, hindcha "Kašmir" so'zi frantsuz tilida “cachemire” ga aylanadi;

[39] Toury, G. (1980). In search of a theory of translation. Tel Aviv: Porter Institute of Poetics.

— Tilshunoslikda calque (/kælk/) yoki qarz tarjimasi boshqa tildan so‘zma-so‘z yoki ildizdan ildizga tarjima qilish yo‘li bilan olingan so‘z yoki iboradir. Fe’l sifatida qo‘llanganda “calque (/kælk/)” so‘z yoki iborani tarkibiy qismlarini tarjima qilishda boshqa tildan o‘zlashtirish, o‘rganilayotgan tilda yangi leksema yasash ma’nosini bildiradi.

Asl so‘zga o‘xshash yangi so‘z yaratish, lekin Ko‘proq mahalliy jihatga ega bo‘lgan masalan: “muezzin” so‘zi, Arabic “mu’adhdhin”;

— Asl tildan boshqa, ammo o‘zaro bog‘liq so‘zdan foydalanish, uni asl so‘z sifatida o‘tkazish. Misol uchun, italyancha “kappuchino” so‘zi ko'pincha ingliz tiliga “latte” deb tarjima qilinadi, bu italyancha “sut” degan ma’noni anglatadi;

— So‘zni umumiy yoki xalqaro bo‘lgan so‘z bilan almashtirish, masalan, “Beaujolais” uchun “qizil vino [4, p.104]”[40];

Ushbu yechimlarning har biri qanchalik mos kelishi turli omillarga bog‘liq. Ulardan biri tarjima qilinayotgan matn turidir. Realiyaning adekvat tarjimalari (Turi ma’nosida) ba’zi ekzotizmni qo‘shadi, bu fazilat ko‘pincha badiiy adabiyotda ma’qul bo‘ladi.

Madaniy voqelikni yetkazishda turli lingvistik dunyoqarashlar tufayli yuzaga keladigan ba’zi to‘siqlar mavjud. Bu to‘siqlar turli millatlarning sharoitlari va turmush tarzidagi farqlar, sivilizatsiyalar va ularga xos bo‘lgan qadriyatlar tizimi o‘rtasidagi tafovutlardan kelib chiqadi.

Realiyalar tavsifi o‘z xususiyati va vazifalariga binoan realiyalar atamalarga va atoqli otlarga yaqin turadi. Madaniy birliklar tadqiqotchilari fikriga ko‘ra, atamalar va realiyalar orasidagi chegara juda shartli va juda o‘zgaruvchandir. Ammo ularni bir xil tushunchalar sifatida baholash to‘g‘ri emas. Atama va realiyalarni f.f.d. Xolmanova[41] quyidagicha farqladi:

Atamalar Ilmiy adabiyotlarda uchraydi. Realiyalar esa Badiiy adabiyotda va ommaviy axborot vositalarida kuzatiladi. Atamalar milliy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lmaydi, Realiyalar neytral ifoda ustunlik qiladi. Realiyalar milliy, mahalliy va tarixiy kolorit ifodasi uchun xizmat qiladi. Atamalar u yoki bu tushunchani nomlash uchun sun’iy ravishda yunoncha va lotincha morfemalar asosida tanlanadi. Realiyalar esa tabiiy tilda mavjud bo‘ladi, xalq tomonidan yaratiladi. Atamalar biror narsa-buyumlarning nomi sifatida shu predmet-narsalar bilan birga tarqaladi hamda muayyan millatning boyligi sifatida e’tirof etiladi. Realiyalar ma’lum bir xalq madaniyati bilan chambarchas bog‘langan, aynan shu xalq tilida umumiste’mol qilinadigan va boshqa xalqda mavjud bo‘lmagan narsa-buyum nomlaridir. Atamalar

[40] Gideon Toury, In search of a theory of translation. — Tel Aviv, The Porter Institute for Poetics and Semiotics, 1980. — 159 p.
[41] Xolmanova, Zulxumor Turdiyevna. "realiyalar semantikasining tarjima matnlardagi ifodasi." academic research in educational sciences 2.11 (2021): 747-761.

tarjima qilinadigan muqobillariga ega birliklar hisoblanadi. Realiyalar aksariyat hollarda tarjima qilinmaydi.

Madaniy Realiyani tarjima qilish uchun lingvistik, ijtimoiy va madaniy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan manba tilning to‘liq va adekvat talqiniga e’tibor qaratish lozim. Ideal holda, madaniy realiyaning talqini asl nusxaning to‘liq ma’nosi, ruhi va uslubini yetkazishi va ekvivalent taassurot qoldirishi kerak.

Realiyalar tarjimasi mutaxassisdan badiiy asar yaratilgan til xususiyatlari, uning sohiblari madaniyati, yashash tarzi, urf-odat, an’analari borasida ma’lum darajadagi bilim, ko‘nikmaga ega bo‘lishni talab qiladi. Realiyalarning to‘g‘ri tarjimasi badiiy matndagi birliklarning o„quvchi ongida maqsadga muvofiq rejalashtirishni ta’minlaydi.

A.V.Fedorov “realiya” deganda “ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi”, faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo‘q bo‘lgan so‘zlar”ni tushunadi.[42] Realiyaning dastlabki ma’nosi madaniyatlarning o‘ziga xos belgilarini aks ettiruvchi narsa-buyum haqidagi tushunchalardir. “Realiya” so‘zining etimologiyasi ham lotincha “moddiy” degan tushunchaga teng keladi. Realiyalarni moddiy madaniyat belgilari sifatida baholash mumkin. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda predmetlarni ifoda etuvchi so‘z va iboralar keng ma’noda realiyalar deb yuritiladi.

O‘zbek xalqining to‘yi marosimlarda etnorealiyalar yaqol mavjud globallashuv jarayonida milliy o‘zlikni saqlash zarurati xalqlar uchun muhim muammodir. O‘ziga xos etnik xususiyatlar bir vaqtning o‘zida milliy ma’lumotni xalqqa saqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Etnorealiyalar o‘zbek xalqining to‘yi marosimlar badiiy matnlarida aks ettirilgan. sovchilik, unashtirish, uy ko‘rar (qiz ko‘rar), fotiha to‘yi, to‘y yuborish, qiz oshi (qizlar majlisi), nikoh o‘qitish, kelin tushdi, kelin salom, charlar, quda chaqiriq kabi marosimlar va ular bilan bog‘liq urf-odatlar. Ularning aksariyati hozirgacha saqlanib, nishonlanib kelinadi.

O‘zbek xalqida nikoh to‘yi marosimiga xos ayrim etnorealiyalar quyidagilar:

Ko‘rmana — kelinni (yoki chaqaloqni) ilk bor ko‘rishda qarindoshlar, yaqin kishilar tomonidan beriladigan sovg‘a;

KAMPIR O‘LDI – Nikoh marosimidan keyin kuyov kelinning uyiga kirayotgan paytda bir qari kampirning o‘zini o‘ldiga solib kuyovning yoniga yiqilishi. (“O‘lgan” kampir kuyov tomonidan pul olgach o‘rnidan turib kuyovning kelin oldiga o‘tishiga ruxsat beradi).

Fotiha — qiz bilan yigitni to‘ydan oldin unashtirish marosimi. Yigit bilan qizning to‘yga rozi bo‘lganidan so‘ng fotiha to’yi o‘tkazilib, unga qarindoshlar va yaqin kishilar taklif etiladi;

[42] Федоров А.В. (1968). Основы общей теории перевода. – Москва, 1968.

Kelin salom — kelinning to‘ydan keyingi kun kuyovning qarindoshlariga salom berish marosimi;

Kuyovnavkar, kuyovjo’ra — to‘y marosimida kuyovning yonida turuvchi do‘stlar, jo‘ralar. Nikoh to‘yida kuyov bilan birga kelinnikiga boruvchi yigitlar, kuyovning do‘stlari, tengqurlari.

Chimildiq — nikoh to‘yi kuni qizning uyidagi kuyov kiradigan xonaga va kuyovning uyidagi kelin tushadigan xonaning bir burchagiga yoki uyning to‘riga tutiladigan maxsus oq parda yoki gulli choyshab. Chimildiq tutish davomiyligi O‘zbekistonning turli hududlarida turlicha.

Ba’zi viloyatlarda ikki, uch kunda so’ng olinsa, ba’zi hududlarda chilla chiqgach (40 kundan so‘ng) olib qo‘yiladi.

Chopon — ichiga paxta qavib tikiladigan uzun milliy kiyim. Nahor oshi marosomida kuyovga yoshi ulug‘ qarindosh tomonidan kiydiriladi;

Ingliz tilidagi ayrim to’ymarosim atamalari quyidagilar:

Aisle — cherkov o‘rtasida joylashgan yo’lak, o’tish joyi. Kelinning otasi yoki boshqa yaqin qarindoshi shu yo’lakdan yurib, kuyov va rohib yoniga kirib borishadi;

Confetti — marosimdan keyin mehmonlar tomonidan kelin-kuyov ortidan omad uchun otiladigan qog`oz parchalari. Ba`zan qog`oz o’rnida guruch ham otishadi;

Wedding band — kelin kuyov bir biriga nikoh marosimida taqadigan uzuklar;

Vow — qasam. Kelin va kuyov bir-biriga izhorlarini aytishadi va yaxshi-yomon kunda birga bo‘lishga qasam ichishadi;

Band — to‘yga chaqiriladigan musiqiy guruh;

Buffet — mehmonlar o‘zlari ovqatlanadigan bufet;

hors d`oeuvres — ovqatdan oldin yeyiladigan gazak;

Bridal shower — kelin, uning oilasi va do‘stlari uchun o‘tkaziladigan bazm. An’anaga ko‘ra, bu kunda sovg’alar ulashiladi.

Fiancé — to‘ygacha kuyovni shunday atashadi;

Fiancée — to‘ygacha kelinni shunday atashadi.

Ingliz va o‘zbek to‘y marosim atamalari o‘ziga xos bo‘lib, ular orasida o‘xshashlikdan ko‘ra farqlar ustunlik qiladi. Bu ikkala xalqning madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi va an’analari bilan bog’liqdir. Har bir atamaning etimologiyasi, ya’ni kelib chiqish tarixi bo‘lib, ularning ba’zilari diniy xarakterga ega bo‘lib, uzoq o‘tmishga borib taqaladi,

Ekvivalentlikning yo‘qligi haqida Fedorov shunday ta’kidlaydiki, tarjima tilida asl nusxaning leksik birligiga mos keladigan so‘z bo‘lmagan holatlar asosan xorijiy realiya tarjimasi bilan bog‘liq. Ular «muayyan xalq va mamlakatga xos ijtimoiy va maishiy hayot realligini» ifodalagan.[43] (Fedorov, 1953, p.136).

[43] .Fedorov, A.V. 1953. Vvedenie v teoriiu perevoda [Introduction to translation theory]. Moscow: Izdatelstvo literatury na inostrannykh iazykakh.

Xulosa

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, etnorealiya moddiy madaniyat, etnik-milliy xususiyatlar, urf-odatlar, shuningdek, tarixiy faktlar yoki jarayonlarning ob'ektlari yoki hodisalari bo'lib, ular odatda boshqa tillarda leksik ekvivalentlarga ega bo'lmagan va tilning juda qiziqarli va g'ayrioddiy qatlamini ifodalaydigan *lingvistik birlik hisoblanadi*. dunyoning lingvistik qarashlari inson mavjudligining birligidan kelib chiqadigan barcha mavjud qonuniyatlarni aks ettiradi, shuningdek, o'ziga xos milliy mazmunga ega. V. fon Gumboldt ta'kidlaganidek, har bir til ma'lum narsalarni ko'rsatib, haqiqatda unda so'zlashuvchilar uchun dunyoning butun suratlarini shakllantiradi.44 [13, p. 136]. Biz tadqiqotimiz uchun asos qilib "to'y marosim etnorealiyalar"ni tanladik, Maqolaning etnorealiya bilan bog'liq nazariy jihatlar (atamalar, ta'riflar) keltirilgan. Tarjima usullarining turli tasniflari ko'rib chiqiladi, maqsad tarjimaning turli jihatlarini o'rganish asosida (alohida e'tibor to'y marosim etnorealiyalarga qaratilgan) asosida aniq bir ish bo'yicha taklifga erishishdir. Ularni tekshirish va realiya tarjimasini batafsil tahlil qilish maqolaning asosiy qismini tashkil qiladi.

Foydalan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вайсбурд М. Л. Реалии как элемент страноведения // Русский язык за рубежом.1972.№3.С. 98–100.
2. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. М.: Высш. шк., 1983.
3. Швейцер А.Д. Теория перевода, статус, проблемы, аспекты. М.: Наука, 1988. 1973.
4. Vlakhov, Sergei and Florin, Sider (1980) Neperevodimoe v perevode, Moscow: Mezhdunarodnye otnosheniia.
5. Sapir, E. (1929). The status of linguistics as a science. Language, 5(4), 207-214.
6. Leppihalme, R. (1997). Culture Bumps. An empirical approach to the translation of allusions. Clevedon-Philadelphia-Toronto-Sidney-Johannesburg: Multilingual Matters.
7. Fayzullayeva Z. Национальный колорит и художественный перевод. – Ташкент: Fan, 1980.
8. Toury, G. (1980). In search of a theory of translation. Tel Aviv: Porter Institute of Poetics.
9. Gideon Toury, In search of a theory of translation. — Tel Aviv, The Porter Institute for Poetics and Semiotics, 1980. — 159 p.

[44] В. фон Гумбольдт, Язык и философия культуры. — Москва, Прогресс, 1985. — 136 с.

10. Xolmanova, Zulxumor Turdiyevna. "realiyalar semantikasining tarjima matnlardagi ifodasi." academic research in educational sciences 2.11 (2021): 747-761.

11. Федоров А.В. (1968). Основы общей теории перевода. – Москва, 1968.

12. Fedorov, A.V. 1953. Vvedenie v teoriiu perevoda [Introduction to translation theory]. Moscow: Izdatelstvo literatury na inostrannykh iazykakh.

13. В. фон Гумбольдт, Язык и философия культуры. — Москва, Прогресс, 1985. — 452 с.

14. Мусина,Надира."Realia as a cultural phenomenon". *Молодой ученый* 22 (2017): 481-484.

15. Nadim, Muhammad Humayun. "ETHNOCULTURAL SITUATION OF UZBEK PEOPLE IN NORTHERN AFGHANISTAN." *Theoretical & Applied Science* 6 (2021): 490-492.

16. Nadim, M. H. (2021). SHIMOLIY AFG 'ONISTON O 'ZBEKLARI ETNOGRAFIK LEKSIKASINING TARIXIY-ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(2), 22-29.

17. Nadim, Humayun Muhammad. "Etnolingvistika va etnografik leksika haqida." *Молодой ученый* 30 (2019): 147-149.

18. Элова, Дилрабо. "СПОСОБЫ ЗАДАНИЯ ИССКУСТВЕННЫХ ЯЗЫКОВ: СИНТАКСИС И СЕМАНТИКА ЯЗЫКА." *«УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ" Международная научно-практическая конференция*. Vol. 1. No. 1. 2022.